

INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN MATHEMATICS LESSONS (ON THE EXAMPLE OF SINGAPORE EDUCATION)

Gafforova Sarvinoz

Senior teacher of the Syrdarya regional pedagogical skills center

E-mail: sarvinozgafforiva@gmail.com

Tel: (33) 844 06 09

Annotation

This article explores the development of methodological competence among trainees in the process of professional development courses. It highlights the significance of enhancing teachers' skills through innovative teaching methods, modern pedagogical technologies, and reflective practices. The article emphasizes that strengthening methodological competence not only improves the professional growth of teachers but also contributes to the quality and effectiveness of the education system.

Keywords: professional development, methodological competence, pedagogical technology, innovation, reflection, teaching skills.

РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СЛУШАТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Гаффорова Сарвиноз

Старший преподаватель Сырдарьинского
регионального центра педагогического мастерства

E-mail: sarvinozgafforiva@gmail.com

Тел.: (33) 844 06 09

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы развития методической компетентности слушателей в процессе курсов повышения квалификации. Подчеркивается важность использования современных педагогических технологий, инновационных методов и рефлексивных практик. Развитие методической компетентности способствует не только профессиональному росту педагогов, но и повышению качества и эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: повышение квалификации, методическая компетентность, педагогические технологии, инновации, рефлексия, профессиональное развитие.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING METODIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH

Gafforova Sarvinoz

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

E-mail: sarvinozgafforiva@gmail.com

Tel: (33) 844 06 09

Annotatsiya

Ushbu maqolada malaka oshirish kurslarida tinglovchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Pedagoglarning kasbiy o'sishini ta'minlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar hamda refleksiya jarayonining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Metodik kompetentlikni rivojlantirish o'qituvchining nafaqat kasbiy mahoratini yuksaltiradi, balki ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, metodik kompetentlik, pedagogik texnologiya, innovatsiya, refleksiya, kasbiy rivojlanish.

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"da pedagoglarning malakasini oshirish va ularning metodik kompetentligini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, amaliy faoliyatga, yangiliklarni izlash va qo'llashga yo'naltiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqishi talab etilmoqda.

Metodik kompetentlik tushunchasi o'zida o'qituvchining ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, turli metod va texnologiyalarni tanlay olish, dars samaradorligini ta'minlash hamda ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritish qobiliyatini mujassamlashtiradi. Shu bois malaka oshirish jarayonida tinglovchilarni metodik tayyorlash, ularda yangicha yondashuvlarni shakllantirish va doimiy ravishda rivojlantirib borish muhim vazifadir.

Shuningdek, bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy an'analarni uyg'unlashtirish metodik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Malaka oshirish kurslarida tinglovchilar nafaqat yangi bilim va metodlarni egallaydilar, balki o'z kasbiy

faoliyatlarini tahlil qilish, ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish hamda o'zaro tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Demak, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlash va zamonaviy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil sifatida qaraladi.

Metodik kompetentlik – o'qituvchining ta'lim jarayonini puxta tashkil etish, zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llay olish, ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchilar shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtira olish qobiliyatidir. U nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Metodik kompetentlik quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

Tashkiliy kompetentlik – darsni samarali tashkil etish va rejalashtirish;

Motivatsion kompetentlik – o'quvchilarda o'rganishga qiziqish uyg'otish;

Kommunikativ kompetentlik – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot o'rnatish;

Innovatsion kompetentlik – yangi g'oya va metodlarni tatbiq etish, tajriba sinovlariga tayyor bo'lish.

1. Malaka oshirish kurslarining metodik kompetentlikni rivojlantirishdagi roli.

Malaka oshirish kurslari tinglovchilarda quyidagi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi;

yangi metodik yondashuvlar bilan tanishtiradi;

zamonaviy texnologiyalar asosida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;

o'qituvchining pedagogik refleksiyasini kuchaytiradi;

innovatsion dars ishlanmalarini yaratish va ulardan samarali foydalanishni o'rgatadi.

Masalan, kurslarda o'qituvchilarga keys-stadi, klaster, aqliy hujum, Venn diagrammasi, rol o'ynash kabi metodlardan foydalanish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazilishi ularning metodik salohiyatini sezilarli oshiradi.

2. Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlar ahamiyati.

Tinglovchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. Chunki ular:

tinglovchilarni faol ishtirok etishga undaydi;

nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi;

tajriba almashish va o'zaro o'rganish muhitini yaratadi;

ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Masalan, malaka oshirish jarayonida tinglovchilardan kichik guruhlarda loyiha ishlab chiqish talab qilinsa, bu ularda hamkorlik, mas'uliyat va ijodkorlikni rivojlantiradi.

3. Xalqaro tajriba va milliy ta'limga integratsiya.

Dunyo miqyosida o'qituvchilarning metodik kompetentligini oshirishga qaratilgan ko'plab ilg'or tajribalar mavjud.

Masalan: Finlyandiya tajribasi – o'qituvchilar mustaqil dars metodikasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishga keng erkinlikka ega;

Singapur tajribasi – o'qituvchilar uchun doimiy “Professional Development Program” joriy etilgan bo'lib, ularning har bir metodik faoliyati reyting orqali baholanadi;

Janubiy Koreya tajribasi – malaka oshirish kurslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish asosiy shart sifatida belgilangan.

Bu tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish, milliy qadriyatlar va an'analar bilan uyg'unlashtirish metodik kompetentlikni rivojlantirishda samarali yo'l hisoblanadi.

4. Metodik kompetentligini rivojlantirishning istiqbollari.

Kelajakda malaka oshirish jarayonida metodik kompetentlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

onlayn kurslar va masofaviy ta'limni keng joriy etish;

amaliy seminar va treninglar sonini ko'paytirish;

xalqaro hamkorlik asosida o'qituvchilarni chet el tajribalariga jalb qilish;

innovatsion pedagogik platformalarni ishlab chiqish va ularni keng qo'llash

1. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir.

2. Metodik kompetentlik o'qituvchidan darsni samarali tashkil etish, innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llash, refleksiya va tahlilni amalga oshirishni talab qiladi.

3. Malaka oshirish kurslarida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar va ilg'or tajribalarni o'rganish metodik kompetentlikni sezilarli darajada rivojlantiradi.

4. Xalqaro tajribani (Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya) milliy ta'lim tizimiga uyg'unlashtirish samaradorlikni yanada oshiradi.

5. Metodik kompetentlikning rivojlanishi o'qituvchining kasbiy barkamolligini ta'minlab, o'qituvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

6. Kelgusida malaka oshirish jarayonida shaxsiy yondashuv, mentorlik tizimi va onlayn ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Hasanboyeva O. Pedagogik kompetentlik va uni rivojlantirish yo'llari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

2. Yusupova M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
3. Shodmonov Q., Abduqodirov A. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlik. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2019.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – Москва: Изд-во МГУ, 2017.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2016.
6. OECD. Teachers for the 21st Century: Using Evaluation to Improve Teaching. – Paris: OECD Publishing, 2013.
7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.